

**BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KREATIV
FIKRLASHGA O'RGATISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR**

Ergasheva Xavasxon Burxonovna

O`zbekiston tumani 49-umumiy o`rta ta`lim maktabi

Boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Yoshlarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang`ich sinflardan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Shu sababdan ham ta`lim mazmuni tubdan yangilanib borilmoqda. Kichik maktab yoshi davrida bolada mustaqil ta`lim olish motivlari yuzaga kelib, ular eng oddiy shaklda - bilimlarni olish bilan birgalikda qo'shimcha manbalarga va turli mavzulardagi kitoblarni o'qishga qiziqishi bilan yuzaga keladi. Ta`lim o`qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o`qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rghanish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishslash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta`lim jarayonida o`qituvchi va o'quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta`lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta`limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta`lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta`limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rini foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta`limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rghanish jarayonida xalqning madaniy-ahloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkonи paydo bo'ladi. Ulug' donishmandlardan biri «kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta`lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi. Ma'lumki, ta`limda ilg'or

pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'l shining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zлari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zлari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobjiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak. Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rinni egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi. Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridaqilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar beramiz. Siz undan ijodiy yondashgan holda foydalanasiz va birinchi prezidentimizning: «Har qarichi muqaddas bo'lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g'urur va iftixon, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko'raylik», - degan fikrlariga javoban ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishishga o'z hissangizni qo'shasiz degan umiddamiz. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar usullarni qo'llash natijasida, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatları rivojlanishi, nutqi ravonlashishi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanishi, bilimga ishtiyoq uyg'otishi, darslarga puxta hozirlik ko'rishga

intilishi haqida ma'lumotlar berilgan. Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, birinchi sinfda o'quvchilarga o'qitishda o'quvchining yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish, eng samarali vositalardan biridir. O'yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. Olimlar ta'limga o'yin orqali yondashuv ta'lim jarayonida osonlashtiradi, deb hisoblagan. Nafaqat osonlashtiradi, balki bu fanga qiziqishini kuchaytirib, bolani chuqur bilim olishiga undaydi. O'yin tarzidagi darslar bolalarning og'zaki nutqini rivojlanishiga yordam beradi. Birinchi sinf o'quvchilari rasmli yoki videoli turli ko'rishlarni juda yaxshi ko'rishadi. Turli xil rangli rasmlar orqali, ularning nutqlarini o'stirishda o'yinlardan muntazam foydalanib turish lozim. Masalan, Bu nima?, Bu kim?, Kim ko'p so'z biladi?" kabi o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin jarayonida bolalarning so'zlarni eslab qolishi, to'g'ri talaffuz etishiga qarab rag'batlantirib borish zarur. Mavzuni kompyuter yordamida taqdim etishda ta'limni individuallashtirish printsipiga e'tibor berish lozim. Ayrim o'quvchilar so'zning grafik, ayrimlari esa tovushli obrazni qabul qilishda qiyinchilikka uchraydilar. Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Hozirgi davr darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda o'qituvchilar Xorij pedagoglari tajribasini o'rganib, innovatsion metodlardan, va yangi pedagogik texnikalardan foydalanishlari lozim. Boshlang'ich sinf ta'lim usullari odatdagagi ta'lim usullaridan biroz farq qiladi, chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari juda yosh. Ta'lim maydoni turli xil qobiliyatlar va shaxslar bilan birgalikda ishlaydigan o'quvchilar bir joyga to'planadigan juda dinamik muhit sifatida ajralib turadi va o'qituvchilarning vazifasi har biri uchun o'zlarini ya'ni o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun ijodiy va innovatsion ta'lim strategiyalarini amalga oshirishga qodir samarali o'qituvchilar bo'lishi muhimdir. Boshlang'ich maktablarda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan eng yaxshi o'qitish usullaridan ba'zilari quyidagilardir:

1. Vizualizatsiya Vizual va amaliy ta'lim tajribasi orqali zerikarli ilmiy tushunchalarni hayotga olib kelish, o'quvchilarga ularning hayotda qanday qo'llanilishini tushunishga yordam berish.
2. Hamkorlikda o'qitish O'quvchilarni kichik guruh yoki butun sinfning faoliyatini rag'batlantirish orqali birgalikda ishlashga qodir bo'lgan o'quvchilarni rag'batlantirish.
3. So'rov asosida ko'rsatmalar O'quvchilarni savol berishga va o'z g'oyalarini o'rganishga da'vat qilimoq, ularga muammolarni hal qilish qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi, shuningdek, ilmiy tushunchalarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Har ikkisi ham muhim hayotiy ko'nikmalar.
4. Farqlash Hech kim ortda qolmasligi uchun o'quvchilarning qobiliyatiga qarab vazifalarni taqsimlash orqali ta'lim jarayonini farqlash va belgilash.
5. Kasbiy rivojlanish Muntazam kasbiy rivojlanish dasturlarida ishtirok etish o'qituvchining dars berish qobiliyatlarini yaxshilashning ajoyib usuli hisoblanadi. Samarali o'qituvchi bo'lish oson ish emas, chunki har bir o'quvchi noyobdir, ammo ta'lim strategiyalarining

kombinatsiyasidan foydalanib, o'qituvchilar ta'lim uslublarini hamda o'quvchilarning bilm salohiyatlarini va imkoniyatlarini hisobga olib, sinfdagi o'quvchilar uchun dinamik va motivatsion muhitni yaratish lozim.

Boshlang`ich sinf ona tiliga oid qiziqarli mavzularga krossvord, rebus va ijodiy izlanishga undaydigan mashqlarni kiritish mumkin. Bunday qiziqarli masalalar quyidagi didaktik talablarga javob berish kerak.

1.Qiziqarli masalalar tezkor va obrazli fikrlashni rivojlantirib, ularni yechish jarayonida ijodiy motivatsiya hosil qilishi.

2.Taqdim etilayotgan materialning o`quvchilar uchun yangi va qiziqarli bo`lishi.

3. O`quvchilarning o`quv-biluv faoliyati darajasini oshirish maqsadida topshiriqlarning mazmunida uni turli usullar bilan yechilishining ko`zda tutilishi.

4.Qiziqarli masalalarning yechish jarayonida bosqichma-bosqich o`quvchilarning ijodkorligini yuzaga chiqarishga yo`naltirilishi.

5.O`quvchilarning mustaqil ishlashini taminlash uchun topshiriqlarning variativ bo`lishi.

6.Topshiriqlarni o`quvchilarning fazoviy tasavvur va tafakkurini rivojlantirishga qaratilishi.

Ona tili o`qitishda krossvord va rebuslardan foydalanish o`quvchilarni zeriktirmaslikka, kimyo atamalaridan so`z boyligini oshirish va tez fikrlashga o`rgatadi. Ona tiliga oid rebursni tuzishda turmushda uchraydigan va o`quvchilarga ma'lum bo`lgan obyektlar, shakllar yoki tajribalarni tanlash maqsadga muvofiq. Rebusda berilgan turli hil obyektlar, shakllar va tasvirlar o`quvchilarga ma'lum bo`lgani uni o`qitishning hamma bosqichida qo`llash mumkin. O`quvchilarni fanga qiziqtirish, darsda qiziqarli masalalar va didaktik o`yinlardan unumli foydalanib faol o`quv – biluv jarayonini vujudga keltirish orqali o`quvchilarning grafik tayyorgarligi darajasini oshirish va kasbiy shakllantirish mumkin

Quyida O`quvchilarni fikrlashga undovchi dars ishlamasidan namuna keltrib o'tamiz

Ta`limiy maqsad: O`quvchilarni mavzu bilan tanishtirish, uning mazmunini qayta hikoya qilish, matndagi voqeа va hodisalarga o`z munosabatlarini bildirishga o`rgatish.

TK1: so`z va gaplarni bog`lagan holda o`z fikrini aniq va ravshan ifodalay olish;

FK1: o`qilgan asar mazmunini tushuna oladi;

Tarbiyaviy: o`quvchilarni aqli, dono va qo`rqmas bo`lishga, hamkorlikda ishlashga o`rgatish TK4: odob- axloq qoidalariga rioya qilish; Rivojlantiruvchi: o`quvchilar lug`atini boyitish, nutqini o`stirish, o`qish malakalarini shakllantirish.

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi, noan'anaviy, ko`nikma, malakalarini shakllantiruvchi dars. Darsning uslubi: Tushuntirish,savol-javob, metodlar, suhbat,

bellashuv. Darsning jahozi: Tarqatma materiallar, rasmi, mavzuga oid taqdimot, ko'rgazmalar, kompyuter. Dars sxemasi. № Darsning borishi Vaqt

1 Tashkiliy qism 6 daqiqa

2 O'tgan mavzuni so'rash va mustahkamlash 10 daqiqa [233]

3 Yangi mavzu bayoni 10daqiqa

4 Yangi mavzuni mustahkamlash 15 daqiqa

5 O'quvchilarni baholash 2 daqiqa

6 Uyga vazifa berish 2 daqiqa

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism

O'quvchilar bilan salomlashish, davomadni aniqlash. O'quvchilarning darsga hozirligini tekshirish.

O'qituvchi:

Salom aziz bolalarim,

rayhon lolalarim.

Qani tinglang so'zlarim,

Jajji o`g'il qizlarim.

Ona yutr egasi- siz,

Istiqlol ertasi- siz.

Bo`ling aql-u rasolar,

O`quvchilar:

Bizlar yaxshi bolamiz,

Ochilgan gul lolamiz,

Ota-onan izmidan Ustozlarning so`zidan

Bizlar also chiqmaymiz [234]

Darsga shay gul – g'unchamiz

O'qituvchi:

Bolajonlar omonmisiz? Bugun darsga tayyormisiz?

O`quvchilar:

Ustoz bizlar omonmiz. Bugun darsga tayyormiz.

Darsimiz: O`quvchilar:

Ona tili va o'qish savodxonli Savodxonlik bu odob ilmi,

Berar bizga hayotdan saboq.

U bordurki, hayot sururli,

U bordurki, kelajak porloq

Sinfimizning shiori:

Kamol topib,

halol o'sib zo'r bo'lamiz,

Bilim olib xalq yo'liga nur bo'lamiz.

Maqsad sari intilamiz,

adashmaymiz,
Yurt deganning yuragiga qo'r bo'lamiz.
Bizlar-yaxshi bolamiz,
Ochilgan gul, lolamiz.
Ota-onas izmidan,
Ustozlarning so'zidan,
Bizlar also chiqmaymiz.
Sinfdag'i barchamiz,
Darsga shay gul-g'unchamiz.
Darsimiz shiori:
"Biz barkamol avlodmiz,
Kelajagi porloq farzandmiz!"
Sinfda bugun kim navbatchi:
Menman bugun navbatchi Sinfni tozalovchi O'quvchilar haqida Ma'lumotlar beruvchi.

2-“__” sinfimiz __ o'quvchimiz Qiz bolalar – __ ta O'g'illarchi – __ ta Barchalari kelishgan

Darsga tayyor bo`lishgan

O'qituvchi: Raxmat bolajonlarim. O'tiringlar marxamat Savollarimga faqat. Javob beringiz o`ylab. O'quvchilar: O`ylab javob berishga qilamiz biz harakat. O'qituvchi: O'quvchilarning tashabbus haqidagi fikrlarini savol-javob orqali aniqlanadi.

O'qituvchi: Hozir darsimiz ona tili va o'qish savodxonligi. Bu fanni o'rganishdan asosiy maqsadimiz nima ekan?

1-o'quvchi: [236] O'qish fanini o'rganishdan maqsadimiz: - o'qishni o'rganish; - bilimimizni oshirish; - ta'lim olish; - tarbiya olish. Siyosiy daqqaq bekti: O'qituvchi: Vatanimiz nima? O'quvchi : Vatan - so'zi naqadar aziz, Vatan- qadami bunchalar qutlug' Tillar ham ojiz uni aytganda, Sevinchga tulaman she'rlar bitganda. O'quvchi : Vatan ostonang erur tillidan, Chunki zamingingda jasurlar yotur Vatan sen uchun Navoiylaring , Jannat bog'larida g'azallar bitur. O'quvchi : Vatan-madhhingni kuylayman men ham, Shamolda tebrangan tetik gul kabi. Vatan -ertangni o'layman men ham, Intilgan bolaning orzusi kabi. Siyosiy daqqaq: O'quvchilarning tashabbus haqidagi fikrlarini savol-javob orqali aniqlanadi. O'qituvchi: O'qituvchi: 2022- yil qanday nomlandi? O'quvchi: Osmoning tinch xalqing farovon. Hurlik sabab yo'llaring ravon. Karvonlaring oshmoqda davon Chindan bugun buyuk bo`libsan. O'quvchi: Odimlaysan shaxdam mustaqil. Qaro kunlar chekinar nari. Yetaklaydi yurtboshing oqil Seni buyuk kelajak sari. Bugun yurtimizda qanday o'zgarishlar va yangilanishlar bo'lmoqda? Osmon o'par binolar qad ko'tarmoqda O'quv kurslari ko'paydi Hususiy bog'chalar ochilyapti Zamonaliv mifiktablar, sifatli ta'lim Dunyoni zabt etish uchun imkoniyatlar Yangi O'zbekiston qurilmoqda ? Guruhlarning taqdimotlari tinglanadi.

II. O'tgan mavzuni mustahkamlash. O'tgan darsda o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun kitoblarimizni ochamiz. She'rni ifodali o'qiyimiz. KIM TUZATADI? Quyonim bor "vov-vov"der, Kuchigin bor-beda yer. Xo'rozim suvda suzar, Mushugim arqon izar. Tongda qichqirar "quq-qu-u" Balig'im bermas uyqu. Eshagim poylar sichqon, Toshbaqam uchqur, chaqqon. Toychog'im ko'p sustqadam, Yura olmas hech ildam. Tuxum bosar buzog'im, O'rdakkinam – suzog'im. Kun-u tun hangrar echkim... Hoy, gapimdan kulgan kim? so'ylaganbo'lsamchatoq O'quvchilar she'rni birin-ketin o'qib chiqadilar. Mavzu yuzasidan savoljavob o'tkaziladi. 1. Suv qanday yasharkan.? Bu hikoyadan nimalarni bilib oldingiz? 2. Asalarilarning qanday g'aroyib qobiliyatları bor? 3. Sariq tovuqning qaysi harakatlarini eslaysiz? U qanday ona ekan? Faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi. Yangi mavzu bayoni 6. Aslida bu hayvonlar nima qilishi kerak? FOYDALI SABZAVOTLAR O'qituvchi: Bugungi mavzuyimiz "Foydali sabzavodlar". Siz uchun qiziqarli ma'lumotlar juda ko'p. ularni tanishtirsam: Rasmga qarang. Tasvirlangan narsalarni muhokama qiling. 1.Ekin ekish uchun yer qanday tayyorlanadi? 2.Tomorqaga qanday ekinlar ekish mumkin? 3.Qaysi ekinlar ertapishar hisoblanadi? 4.Qaysi sabzavotlarni qishga g'amlab qo'yish mumkin? Berilgan so'zlarning ma'nosini rasmga qarab tushuntiring. Tarkibimda mashhur A, B, C,D,E vitaminlari bor. Men immunitetni kuchli qilaman. Ko'rish qobiliyatini yaxshilayman. Betob bo'lmay desangiz, meni har kuni iste'mol qiling. - Xotiram a'lo bo'lsin desangiz, meni ko'proq yeng. Uyqusizlik va kamqonlikda menga murojaat qilavering! SABZAVOTLAR NIMA DEYDI? Sabzi: Bulg'or qalampiri o Foydali xususiyatlarim haqida insonlar qadimdan bilishadi. Menda siz uchun zarur bo'lgan moddalar serob. Kaliy, kalsiy, temir va natriy moddalariga boyman. -Oftob nurida qizarib pishaman. Men yurak va oshqozon uchun eng yaxshi doriman. Qondagi qand miqdorini nazorat qilaman. Taomlarga o'zgacha ta'm beraman. Bejizga odamlar birorta ham taomni mensiz tayyorlay olishmaydi-da. Sababi bakteriya va mikroblar mendan qo'rqib turadi. Baqlajon: Pomidor: Piyoz: Biroz yoqimsiz hidimni aytmasa, foya keltirishda menga teng keladigani yo'q. yaxshi yetishtirsangiz, ko'p daromad olib kelaman. 1. Qaysi sabzavot uyqusizlik va kamqonlikda foya beradi? 2. Sabzida qanday vitaminlar bor? 3. Piyozning eng muhim hususiyati nimada? 4. Pomidorda qanday foydali xususiyatlar bor? 5. Sarimsoqning qanday xususiyatlari bor? Qiziqarli musobaqa uyshtiring. Sabzavotlarga ta'rif bering. Sarimsoq: Nomi, shakli, ko'rinishi Ta'mi, foydali xuxusiyatlari Qanday taomlar tayyorlanishi Sinf uch guruha bo'linadi: 1-guruhan biror sabzavotning nomi, shakli ko'rinishi haqida so'zlab beradi. 2-guruhan o'sha sabzavotning ta'mi, foydali xususiyatlari haqida so'zlab beradi. 3-guruhan undan qanday taomlar tayyorlanishi haqida so'zlab beradi. She'rni ifodali o'qing. SABZI Yupqanining po'stim bor, Dalada ko'p do'stim bor. Maqolda ham yoziqsan, O'sha oltin qoziqsan. Yotsam yerga yopishib, Dumginamdan tortishib, Tashladilar o'raga, Salom palov to'raga. 1. She'rdagi voqealar qaysi sabzavot tilidan aytilyapti? 2. Sabzavot o'ziga qanday ta'rif beryapti? 3. "O'sha oltin qoziqman" deganda nimaga ishora

qilyapti? 4. Bu sabzavotsiz qaysi milliy taomni tayyorlash mumkin emas? “Sabzavotlar nima deydi?” audio matni tinglandi. Mustahkamlash Sabzavotlar nomini aytin? Dam olish daqiqasi. Barcha o’quvchilar o’rnilaridan turgan holda, qo’l va oyoq harakatlari bilan bajaradilar. Biz yugurdik, yugurdik, O’rmonga yetib keldik. Savatchamizni olib, Qo’ziqorinlar terdik. Baholash va rag’batlantirish. Guruhlardagi “rag’bat” kartochkalari hisoblab chiqilib, o’quvchilar baholanadi. Uyga vazifa: she’rni yod olish.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Tolipov O’.,No’manova N.O’quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnalogiyalardan foydalanish.G’Y Xalq ta’limi. 2002/ 4.25 b.
2. Begmatov U.E.Umumiyl o’rta maktablarda tashqari ishlarni dars bilan boqlashning nazariy-metodologik assoslari.Diss...kand.ped.nauk.T.2004.-
3. Asqarov I.R.,To’xtaboyev N.X.,G’opirov K.G’.Boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun darslik.-Toshkent